

Dastlabki ma'lumotlar

## 2020-yil yanvar-aprel oylarida Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi.

Butun dunyoda iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalilaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu yerda, xususan, sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.



Dastlabki ma'lumotlar

**Xizmatlar sohasi** - bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

---

## 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

---


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni - 21314 birlikda

Ularning umumiyligi  
sonidagi ulushi -  
65,3 %

O'tgan yilning shu davriga  
nisbatan o'sish sur'atlari -  
124,5 %




**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi – 65,3 %, sanoat - 14,0 %, qurilish - 11,3 % ga yetdi va atigi 9,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tar-kibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (42,4 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tash-kilotlarning ulushi 10,7 % ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,7 % ga yetdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,8 % ga teng bo'ldi. Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

**Ma'lumot uchun:** 2019-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 17,1 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari – 37,6 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 10,2 %, tashish va saqlash - 6,0 %, axborot va aloqa - 1,8 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,5 % hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar - 41,9 % ni tashkil etgan.

## 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 67,3 % to'g'ri keladi.

2020-yil 1-may holatiga ko'ra, yirik tashkilotlar ulushi 32,7 % ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 4199 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 21314 tani tashkil etdi va o'sishi esa 24,5 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligining xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 65,3 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 78,7 % ekvivalentida qayd etildi.


Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta ahamiyatga egadir.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiatи, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab va o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-may oylarida ko'rsa tilgan bozor xizmatlari hajmi 2331,1 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 114,1 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,1 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlarda ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari, shuningdek, tadbirdorlik faoliyati integratsiyasi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari shakllanadi.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televideniya va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

*Dastlabki ma'lumotlar*


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2331,1</b>	<b>94,1</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	118,8	109,4
Moliyaviy xizmatlar	446,1	127,5
Transport xizmatlari	300,8	82,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	284,1	83,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	60,4	77,7
Savdo xizmatlari	1022,0	91,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	52,5	75,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	82,5	105,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	23,1	98,5
Ijara xizmatlari	49,7	79,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	51,4	79,4
Shaxsiy xizmatlar	52,4	80,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	21,7	64,0
Boshqa xizmatlar	49,7	80,6

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi an'anaviy faoliyat turlari bilan cheklanib qolmay, jamoat hayotidagi ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shilib boradi va iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, 2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan % da (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (127,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (109,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (105,4 %) qayd etildi.

Yuqori bo'lmagan o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (98,5 %), savdo xizmatlari (91,5 %), transport xizmatlar (82,1 %), boshqa xizmatlar (80,6 %), shaxsiy xizmatlar (80,4 %), kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (79,4 %), ijara xizmatlari (79,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (77,7 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (75,6 %), shuningdek, me'morchilik sohasidagi xizmatlar (64,0 %) belgilandi.

Dastlabki ma'lumotlar




Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Savdo** - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarni zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi 43,9 % ni tashkil etib, bu 1022,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)

### Savdo xizmatlari - 100,0 %



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi umumiyligi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismiga aniqrog'i 68,3 % ga to'g'ri keladi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 28,8 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 2,9 % ni tashkil etdi.

## Moliyaviy xizmatlar (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



2020-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 446,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,6 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 27,5 % ni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadi, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



### 2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan

2020-yil yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 118,8 mlrd. so'm darajasida belgilandi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarining o'sish sur'ati 109,4 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,9 %, noshirlik xizmatlari - 1,7 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,3 % va axborot sohasidagi xizmatlar - 0,5 % ni tashkil etdi.

Ko'rileyotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Termiz shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1069,6 mlrd. so'mga oshdi va 137,2 mlrd. so'mga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

## Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yil yanvar-aprel oylarida)

	Hajmi, mldr. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
<b>Surxondaryo viloyati *</b>	<b>2331,1</b>	<b>94,1</b>	<b>884,7</b>
Termiz sh	1069,6	102,7	5938,9
tumanlar:			
Oltinsoy	62,4	86,6	353,0
Angor	85,0	85,8	641,0
Bandixon	13,0	86,3	181,1
Boysun	51,2	86,9	440,5
Muzrabot	50,9	85,4	359,3
Denov	357,8	90,5	928,2
Jarqo'rg'on	92,3	87,8	422,7
Qumqo'rg'on	91,7	88,8	388,3
Qiziriq	52,8	86,3	462,2
Sariosiyo	88,3	87,2	427,0
Termiz	71,7	85,9	927,9
Uzun	67,5	86,0	386,1
Sherobod	87,7	86,8	452,7
Sho'rchi	89,2	87,8	426,8

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 884,7 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi -  
884,7 ming so'm

2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan



Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotida zamonaviy tarkibiy o'zgartirishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy shart hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul: P.Eshboyeva

Tel: (76) 225-65-91